




Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-iyun)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6291,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 111,8 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (85,5 %) ni tashkil etdi.



B– Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 13,5 % ga hamda elektr, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 2,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 0,5 % ga, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -1,1 % ga oshganligi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 30,1 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Shagʻal , ming t.	0,0	0,0	0,0




Ishlab chiqaradigan sanoat



2021-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5382,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,5 % ini tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 % ni (2020- yilning yanvar-iyun oylarida - 2,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 6,2 % (5,4 %), o'rta-quyi texnologiyali - 13,7 % (11,8 %) va quyi texnologiyalisi - 78,4 % (80,0 %) ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali
Ulushi % da

O'rta-yuqori texnologiyali
Ulushi % da




O'rta-quyi texnologiyali
Ulushi % da

Quyi texnologiyali
Ulushi % da


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 40,6 % (2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 22,6 % (2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,9 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,4 % (2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 92,3 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,3 % (2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 65,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,4 % (2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da

2021- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 33,8 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,1 martaga o'sgan), 32,3 ming tonna omuxta yem (6,8 %) ishlab chiqarilib yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
Yumshoq bug'doy va spelta uni

Paxta tolasi

Omuxta yem

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	10,9	33,8	22,9
Aroq – ming litr 100 % spirt	200,8	0	-200,8
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	0	0	0
Vino, ming litr	340,0	0	-340,0
Un, ming tonna	74,4	72,4	-2,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	10,8	6,8	-4,0



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-iyun oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 813,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (12,9 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,5 % ga oshganligi kuzatildi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yil boshidan I- VI oylar, % da)






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	2257,3	3257,3	877,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	55,6	43,0	-13,3



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yil boshidan I- VI oylar, % da)

2020-yil % da



2021- yil % da



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar- iyun	2021- yil yanvar- iyun	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	22,3	38,1	15,8
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	2,1	5,8	3,7
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	12,5	11,7	-0,8
To'qimachilik chiqindilari, tonna	0,0	9,0	9,0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	0,0	0,0	0,0


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 71,0 % ga, oqava suvlarni shlami 2,7 martaga ortganligi, hamda shahar xo'jaligining qayta

ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 2,7 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3445,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 115,3 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 54,8 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 44,3 % ni, shuningdek, Namangan tumani 10,9 % ni, To'raqo'rg'on tumani 8,4 % ni, Chust tumani 7,2 % ni, Kosonsoy tumani 7,0 % ni, Uchqo'rg'on tumani 5,1 % ni hamda Pop tumani 3,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (115,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Chust (2,1 marta), Kosonsoy (136,7 %), To'raqo'rg'on (159,7 %), Namangan shahar (119,9 %), Chortoq (116,3%) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-iyun oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1 524,0	44,3	119,9
	Namangan sh.		

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	289,2	8,4	159,7
	To'raqo'rg'on		

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	108,5	3,1	39,6
	Mingbuloq		

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	143,8	4,2	126,1
	Uychi		

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	240,8	7,0	136,7
	Kosonsoy		

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	175,0	5,1	100,5
	Uchqo'rg'on		

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	374,7	10,9	101,3
	Namangan		

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	79,9	2,3	116,3
	Chortoq		

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	48,1	1,4	108,0
	Norin		

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	248,8	7,2	212,7
	Chust		

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	116,3	3,4	104,1
	Pop		

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	96,3	2,8	113,8
	Yangiqo'rg'on		

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 35,4 % ni, shuningdek, Namangan tumani 13,6 % ni, To'raqo'rg'on tumani 12,6 % ni hamda Chust tumani 11,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Chust (2,5 marta), To'raqo'rg'on (171,5 %), Kosonsoy (140,2 %) hamda Pop (127,3 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-iyun oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	896,7	35,4	116,4		262,6	12,6	171,5
	Namangan sh.				To'qazo'rg'on		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	85,5	4,5	32,7		69,4	2,7	85,8
	Mingbuloq				Uychi		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	216,1	10,5	140,2		54,8	2,7	107,5
	Kosonsoy				Uchqo'rg'on		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	240,1	13,6	99,5		31,2	1,3	93,0
	Namangan				Chortoq		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	26,7	0,9	106,0		207,3	11,1	248,0
	Norin				Chust		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	47,9	2,7	127,3		54,4	2,0	108,7
	Pop				Yangiqo'rg'on		

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 48,5 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 9,8 % ni, Namangan tumani esa 10,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumani (188,0 %), Uychi tumani (157,9 %) hamda Chortoq tumanida (138,5 %) qayd etildi.



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2021- yilning yanvar-iyun oylarida)

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	627,3	48,5	125,2		26,6	2,0	94,9
	Namangan sh.				To'qazo'rg'on		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	23,0	1,8	188,0		74,3	4,8	157,9
	Mingbuloq				Uychi		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	24,6	2,1	112,2		120,2	9,8	97,7
	Kosonsoy				Uchqo'rg'on		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	134,7	10,7	104,6		48,7	4,5	138,5
	Namangan				Chortoq		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	21,3	1,6	110,5		41,5	3,2	124,4
	Norin				Chust		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	68,5	6,6	92,3		41,9	4,4	121,2
	Pop				Yangiqo'rg'on		



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar-iyun oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1783,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 28,3 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2021- yilning yanvar-iyun oylarida


	Mlrd. so'm		Ulushi % da		O'sishi % da		
	6 291,6		100,0		111,8		
	Viloyat						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	2 488,2	39,5	110,3		1 022,9	16,3	125,1
	Namangan sh				To'raqo'rg'on		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sish sur'ati		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	275,6	4,4	96,1		417,8	6,6	105,3
	Mingbuloq				Uychi		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	252,6	4,0	114,9		397,5	6,3	100,2
	Kosonsoy				Uchqo'rg'on		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	482,1	7,7	100,4		83,7	1,3	101,4
	Namangan				Chortoq		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	239,8	3,8	100,2		351,3	5,6	124,7
	Norin				Chust		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	181,5	2,9	106,7		98,6	1,6	110,4
	Pop				Yangiqo'rg'on		



Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida To'raqo'rg'on (2020-yil yanvar-iyun oylariga

nisbatan 125,1 %), Chust (124,7 %), Kosonsoy (114,9 %), Namangan shahar (110,3 %) hamda Yangiqo'rg'on (110,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 39,5 % i) hamda To'raqo'rg'on (16,3 %), Namangan (7,7 %), Uychi (6,6 %), va Uchqo'rg'on (6,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Chortoq (1,3 %) hamda Yangiqo'rg'on (1,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (4464,9 ming so'm), Namangan shahrida (3837,5 ming so'm), Namangan tumani (2669,6 ming so'm), Uchqo'rg'on (2267,5 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2184,3 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Chortoq (412,2 ming so'm), Yangiqo'rg'on (442,6 ming so'm), Pop (812,2 ming so'm) va Kosonsoy (1181,5 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar-iyun oylarida, ming so'm


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 184,3	1 196,1
	Viloyat	

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 837,5	2 350,5		4 464,9	1 262,3
	Namangan sh			To'raqo'rg'on	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 136,1	840,7		1 917,2	659,7
	Mingbuloq			Uychi	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 181,5	1 126,2		2 267,5	998,3
	Kosonsoy			Uchqo'rg'o'n	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 669,6	2 074,6		412,2	393,6
	Namangan			Chortog	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 438,7	288,3		1 299,7	920,6
	Norin			Chust	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	812,2	520,5		442,6	432,4
	Pop			Yangiqo'rg'on	



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2021- yilning yanvar-iyun oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2928,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 46,5 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiyoʻrgʻon (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoʻq (100,0 %), Uychi (73,2 %) va Kosonsoy (70,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, eng kichkina ulush Uchqoʻrgʻon (13,9 %), Toʻraqoʻrgʻon (16,7 %), Mingbuloq (24,6 %) va Chust (34,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- iyul holatiga koʻra)

Bugungi kunda viloyatda 7130 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2692 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,8 % i) Namangan shahriga, 559 tasi (7,8 %) Uychi tumaniga, 543 tasi (7,6 %) Chust tumaniga, 537 tasi (7,5 %) Kosonsoy tumaniga, 516 tasi (7,2 %) Namangan tumaniga, 474 tasi (6,6 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 967 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 220 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 22,8 %) Namangan shahrida, 104 tasi (10,8 %) Norin tumanida, 84 tasi (8,7 %) Kosonsoy tumanida, 82 tasi (8,5 %) Chust tumanida, 79 tasi (8,2 %) To'raqo'rg'on tumanida hamda 79 tasi (8,2 %) Uychi tumanida tashkil etildi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 692 ta), Uychi (559 ta), Chust (543 ta), Kosonsoy (537 ta), Namangan (516 ta), To'raqo'rg'on (474 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi
(2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi
(2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2021-yilning 1-iyul holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (192 ta), Pop (289 ta), Chortoq (310 ta), Yangiqo'rg'on (314 ta), Uchqo'rg'on (327 ta) hamda Norin (377 ta) tumanlari qayd etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 99 ta loyiha bo'yicha

230,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 4 386,6 ming. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021-yil yanvar-iyun oylarida 440 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish oʻrinlari soni 228 taga koʻpaydi. Shu bilan birga, 2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining 4,9 martaga ortganligi kuzatildi.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar
ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining
asosiy koʻrsatkichlari**

	2020-yil yanvar- iyun	2021-yil yanvar- iyun
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	39	99
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	28	57
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. soʻm</i>	142,8	230,8
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	0,9	4,4
Yaratilgan yangi ish oʻrinlari, <i>birlik</i>	212	440

Sanoat statistikasi
boʻlimi
Tel.: (69) 227-84-80